

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETIDA
“MAQSUD SHAYXZODA” STIPENDIYASI**

Hayriyev Hayriddin Sirojiddin o‘g‘li

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

xayriddinxayriyev08@gmail.com

+998932790455

Annotatsiya: Mamlakatimizda adiblarning hayoti va ijodi o‘rganish ularni yosh avlodlarga ken targ‘ib qilish maqsadida yurtimizdagi ko‘plab oliy ta‘lim muassasalariga adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan, qolaversa, adiblar hiyoboni haykallari o‘rnatilmagan adiblar ham birlashtirilib berilgan. Shu jumladan, Toshkent Davlat Transport Universitetiga ham mashhur shoir, dramaturg, pedagog, adabiyotshunos hamda tarjimon bo‘lmish Maqsud Shayxzoda birlashtirilgan. Ushbu maqolada TDTrU da ta‘sis etilgan “Maqsud Shayxzoda” stipendiyasi haqida gap boradi hamda uning mezon va qulayliklari yoritib beriladi.

**"MAKSUD SHEIKHZODA" SCHOLARSHIP AT TASHKENT STATE
TRANSPORT UNIVERSITY**

Abstract

In order to promote the study of the life and work of writers in our country to the young generations, many higher educational institutions of our country have their statues installed in the Alley of Writers, as well as writers whose statues are not installed in the Alley of Writers. Among them, famous poet, dramatist, pedagogue, literary critic and translator Maqsud Shaikhzada is attached to Tashkent State Transport University. This article talks about the “Maqsud Sheikhzadeh” scholarship established at TDTrU and explains its criteria and facilities.

**СТИПЕНДИЯ «МАКСУД ШЕЙХЗОДА» В ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ**

Абстрактный

В целях популяризации жизни и творчества писателей нашей страны молодым поколениям во многих высших учебных заведениях нашей страны установлены памятники на Аллее Писателей, а также писателям, статуи которых на Аллее не установлены. Писателей. Среди них известный поэт, драматург, педагог, литературный критик и переводчик Максуд Шайхзаде, прикрепленный к Ташкентскому государственному университету путей сообщения. В этой

статье рассказывается о стипендии «Максуд Шейхзаде», учрежденной в ТДТУ, и объясняются ее критерии и возможности.

Kalit soʻzlar: nizam, stipendiya, taqdirlash, taʼsis etish, koʻkrak nishoni, targʻibot, maqola, tanlov, faollik, baholar koʻrsatgichi, taqdim etishi.

Keywords: charter, scholarship, award, establishment, badge, promotion, article, competition, activism, grade indicator, presentation.

Ключевые слова: устав, стипендия, награда, учреждение, значок, повышение, статья, конкурс, активизм, разрядный показатель, представление.

Kirish:

Maqsud Shayxzoda nomidagi maxsus stipendiya va koʻkrak nishoni toʻgʻrisidagi nizomning birinchi bobida eʼtibor qaratadigan boʻlsak unda Maqsud Shayxzoda stipendiyasi haqidagi umumiy qoidalar yoritib berilgan. Ularning birinchisi bu Toshkent davlat transport universiteti talabalari va professor oʻqituvchilariga Maqsud Shayxzoda nomidagi maxsus stipendiyani taʼsis etish va uning koʻkrak nishoni bilan taqdirlash bilan bogʻliqdir. Ikkinchisida stipendiyaning taʼsis etilish maqsadi yoritilgan boʻlib unda Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodini keng targʻib qilish va oʻrganish hamda u borasida ilmiy tadqiqotlar oʻtkazish bilan bogʻliq boʻlgan talabalar va professor oʻqituvchilarga stipendiyani va koʻkrak nishonini taqdim etishdir. Hamda birinchi bobning soʻngi uchinchi boʻlimi uning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi toʻgʻrisida gap boradi va unda quyidagicha yozilgan: “Mazkur Nizom Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagi 502-son qarori hamda Transport vazirligining 2020 yil 7 sentabrdagi 173-son buyruqlari asosida ishlab chiqilgan.” Bundan tashqari mazkur nizomda yana toʻrtta bob mavjud boʻlib ular quyidagilarni yoritib beradi: II bob. Maqsud Shayxzoda nomidagi maxsus stipendiyani tayinlash tartibi va mezonlari.III bob. Maqsud Shayxzoda nomidagi koʻkrak nishoni bilan taqdirlash tartibi. IV bob. Koʻkrak nishonining tavsifi. V bob. Yakunlovchi qoidalar.

Asosiy qism:

Maqsud Shayxzoda stipendiyasi bilan qanday yoshlar va professor oʻqituvchilar taqdirlanadi? Bu stipendiyani sohibi boʻlish uchun talabgorlar avvalo Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodini keng koʻlamda targʻib qilishi va uning hayoti va ijodiga oid konfrensiya tanlov va tadbirlarda ishtirok etishi kerak hisoblanadi. Hamda adabiyotga va Maqsud Shayxzodaga tegishli boʻlgan ilmiy ishlari mavjud boʻlgan talabalar qoʻlga kirita oladi. Ushbu stipendiyani tayinlash Tashkent davlat transport universitetida har yil boʻlib oʻtadi va talabgorlardan oʻzgacha bir faollik talab etiladi. Shuningdek, Maqsud Shayxzoda nomidagi maxsus stipendiya va koʻkrak nishoni sohibi boʻlish istagidagi talaba va professor oʻqituvchilar har yilning 20 mart sanasida

qadar o‘zlarining hujjatlarini joriy fakultetning yoshlar ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosariga yetkazishlari zarur. Talabgorlardan quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- sinov daftarchasidan ko‘chirma (o‘zlashtirish kursatkichi);
- kafedra tavsiyanomasi;
- ijodiy (ilmiy) ish, uning annotatsiyasi va taqriz (mavjud bo‘lsa); murabbiy (tyutor)ning fikr-mulohazalari;
- adib hayoti va ijodi hamda faoliyati (ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa) targ‘iboti bo‘yicha materiallar;
- adib hayoti va ijodini, faoliyatini tadqiq qilish bo‘yicha respublika va xalqaro miqyosdagi jurnallarda chop etilgan yakka mualliflikdagi ilmiy maqolalar, o‘tkazilgan anjumanlardagi faol ishtirokini tasdiqlovchi hujjat (asl nusxasi);
- o‘z sohasi bo‘yicha xalqaro yoki respublika miqyosidagi ko‘rgazma, biyenalle, festival, simpozium, tanlov va boshqa nufuzli tadbirlardagi ishtiroki va natijalarga erishganligi (mavjud bo‘lsa) to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjat. Hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng fakultet dekanlari ham ushbu hujjatlarni ko‘rib chiqadi hamda uni universitet ilmiy kengashiga topshiradi. Topshirilgan hujjatlar yashirin ovoz berish yo‘li orqali ko‘rib chiqiladi va maxsus stipendiya va ko‘krak nishoni ta‘sis etish uchun qaror tayinlashadi. Ushbu qaror universitet rektori tomonidan ko‘rib chiqilib imzolanadi.

Xulosa:

Ushbu maqola so‘ngida shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida juda ko‘p imkoniyatlar yaratilmoqda. Ulardan biri esa bu tepada takidlab o‘tgan Maqsud Shayxzoda nomidagi stipendiyadir. Shunday imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish esa har bir yosh avlodning o‘z qo‘lida hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://tstu.uz/page/75> [M.Shayxzoda stipendiyasi to‘g‘risidagi Nizom.]